



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'YIY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulloeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES	76
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek	
“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIIY KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich	
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
FOYDA SOLIG‘INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA‘SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To‘xtayevich	
RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta‘minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M.	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi	

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH



Komilova Shaxnoza Komiljon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Kechki ta'lim va magistratura fakulteti,
E-25 guruh 1-kurs magistranti
Telefon: +998 97 784 68 02
ORCID: 0009-0001-8561-7610

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini rivojlanishini ekonometrik modellashtirishning nazariy, metodologik hamda amaliy jihatlarini ilmiy asosda tadqiq etilgan. Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining bandlikni ta'minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish, innovatsion faollikni rag'batlantirish va raqobat muhitini shakllantirishdagi muhim o'rni bilan izohlanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Prezident farmonlari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, kichik va o'rta biznesni jadal rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda 2030-yilgacha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar tadqiqotning normativ-huquqiy asosini tashkil etadi. Maqolada ekonometrik modellashtirish korxonalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi kapital, mehnat resurslari, kreditlar, investitsiyalar, soliq yuki, raqamli texnologiyalar, eksport salohiyati va institutsional muhit omillarining ta'sirini miqdoriy baholashning samarali vositasi sifatida talqin etilgan. Shuningdek, ekonometrik modellar asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, prognozlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ekonometrik model, regressiya tahlili, panel ma'lumotlar, investitsiya, kreditlash, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, prognozlash.

Аннотация. В данной статье на научной основе исследованы теоретические, методологические и практические аспекты эконометрического моделирования развития предприятий малого бизнеса и частного предпринимательства. Актуальность темы обусловлена важной ролью субъектов предпринимательства в обеспечении занятости населения, увеличении объёма валового внутреннего продукта, ускорении регионального развития, стимулировании инновационной активности и формировании конкурентной среды в экономике Узбекистана. Нормативно-правовую основу исследования составляют указы и постановления Президента Республики Узбекистан, Стратегия «Узбекистан – 2030», нормативные документы по ускоренному развитию малого и среднего бизнеса, а также целевые показатели, определённые до 2030 года. Эконометрическое моделирование рассматривается как эффективный инструмент количественной оценки влияния капитала, трудовых ресурсов, кредитов, инвестиций, налоговой нагрузки, цифровых технологий, экспортного потенциала и институциональной среды на развитие предприятий. Кроме того, раскрываются возможности использования эконометрических моделей для выявления тенденций развития предпринимательской деятельности, прогнозирования её результатов и принятия эффективных управленческих решений.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, эконометрическая модель, регрессионный анализ, панельные данные, инвестиции, кредитование, цифровая экономика, инновации, прогнозирование.

Abstract. This article scientifically examines the theoretical, methodological, and practical aspects of econometric modelling of the development of small business and private entrepreneurship enterprises. The relevance of the study is determined by the significant role of entrepreneurial entities in promoting employment, increasing gross domestic product, accelerating regional development, stimulating innovation activity, and fostering a competitive environment in the economy of Uzbekistan. The regulatory framework of the research is based on presidential decrees and resolutions, the Uzbekistan–2030 Strategy, legal and policy documents



aimed at accelerating the development of small and medium-sized enterprises, as well as target indicators established up to 2030. Econometric modelling is interpreted as an effective quantitative tool for assessing the impact of capital, labour resources, credit, investment, tax burden, digital technologies, export potential, and the institutional environment on enterprise development. In addition, the article highlights the potential of econometric models for identifying development trends, forecasting business performance, and supporting effective managerial decision-making.

Keywords: small business, private entrepreneurship, econometric modelling, regression analysis, panel data, investment, lending, digital economy, innovation, forecasting.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, aholi bandligini ta'minlash, ichki bozor salohiyatini kengaytirish hamda innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston sharoitida ushbu sektor aholining tadbirkorlik tashabbuslarini samarali iqtisodiy faoliyatga yo'naltirish, hududlarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va eksport salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [6].

Hozirgi bosqichda kichik biznesni rivojlantirish jarayoni nafaqat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishni, balki ishonchli statistik ma'lumotlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar va zamonaviy prognozlash modellariga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ham talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son¹ bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida xususiy sektor ulushini kengaytirish, raqobat muhitini yanada rivojlantirish va tadbirkorlik faolligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qaror² kichik biznesni rivojlantirish dasturlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda [4]. 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son qaror³ esa tadbirkorlik subyektlarini uzluksiz qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan [5]. 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmonda⁴ kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish vazifalari belgilangan [2]. Bundan tashqari, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hujjatda⁵ 2030-yilgacha kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadi belgilab berilgan bo'lib, bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uning ekonometrik modellashtirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng qamrovda tadqiq etilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon ilmiy maktabida mazkur soha iqtisodiy o'sish, bandlik, innovatsion rivojlanish va hududiy iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. Ayniqsa, ekonometrik modellashtirish yordamida kichik biznes faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim metodologik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda kichik va o'rta biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni Ayyagari, Beck va Demircuc-Kunt tomonidan batafsil tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida kichik biznes subyektlarining bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va yalpi ichki mahsulotdagi ulushi xalqaro qiyosiy tahlil asosida baholangan. Mualliflar kichik biznes rivojlanishining kredit bozori, institutsional muhit va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Mazkur yondashuv kichik biznes faoliyatini ekonometrik modellar yordamida baholashning ilmiy ahamiyatini yanada oshirgan [8].

OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes va tadbirkorlikning innovatsion faolligini rag'batlantirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilingan. OECD SME and Entrepreneurship Outlook hisobotlarida moliyalashtirish manbalari, raqamli transformatsiya, eksport faoliyati va startap ekotizimining kichik biznes rivojlanishiga ta'siri keng yoritilgan [7]. Ushbu tadqiqotlar kichik biznes rivojlanishini baholashda institutsional va texnologik omillarni ham hisobga olish muhimligini ko'rsatadi.

Ekonometrik modellashtirish nazariyasi va metodologiyasi bo'yicha Gujarati va Porterning "Basic Econometrics" asari regressiya tahlili, parametrlarni baholash hamda model sifatini tekshirishning fundamental

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.09.2023 yildagi PQ-306-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-6609110?ONDATE=03.04.2024>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.09.2024 yildagi PQ-312-son <https://lex.uz/docs/-7093832>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son <https://lex.uz/docs/-7444738>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>



nazariy asoslarini shakllantirgan [9]. Wooldridge tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy ekonometrik yondashuvlarda panel ma'lumotlar, endogenlik muammolari va sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash usullari batafsil yoritilgan [10]. Greene esa ekonometrik tahlilda murakkab statistik modellar va iqtisodiy jarayonlarni ko'p omilli tahlil qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirgan [11].

Panel ma'lumotlar asosida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish masalalari Baltagi ilmiy ishlarida alohida o'rin egallaydi. Muallif hududiy va vaqt omillarini birgalikda hisobga olish orqali iqtisodiy tizimdagi muhim bog'liqliklarni aniqlash imkoniyatlarini ilmiy asoslab bergan [12]. Ushbu yondashuv kichik biznes rivojlanishini hududlar kesimida chuqur tahlil qilish va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Vaqt qatorlari va prognozlash usullarini rivojlantirishda Box va Jenkinsning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan ARIMA hamda boshqa vaqt qatorlari modellari iqtisodiy ko'rsatkichlarning uzoq muddatli dinamikasini yuqori aniqlikda prognozlash imkonini yaratadi [13]. Mazkur yondashuv kichik biznesning o'sish sur'atlari, kreditlash hajmi va investitsion faollik ko'rsatkichlarini baholash hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda samarali qo'llanilmoqda.

MDH davlatlari iqtisodiy maktabida ekonometrik modellashtirish va hududiy iqtisodiyot tahlili bo'yicha Kantorovich, Granberg, Yeliseyeva va Mxitaryanlarning ilmiy ishlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kantorovich optimal rejalashtirish va resurslardan samarali foydalanish nazariyasini ishlab chiqqan bo'lsa, Granberg hududiy iqtisodiy tizimlarni modellashtirish hamda iqtisodiy mutanosiblikni baholash masalalarini chuqur tadqiq qilgan. Yeliseyeva va Mxitaryan esa statistik-ekonometrik tahlil usullarining iqtisodiy jarayonlarga tatbiq etilish mexanizmlarini yanada rivojlantirgan.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan ham tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishining nazariy hamda amaliy jihatlarini keng ko'lamda tadqiq etilgan. Jumladan, A. O'lmasov bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyatini yoritgan. Sh. Shodmonov va N. To'xliyev iqtisodiy islohotlar, mulkchilik munosabatlari hamda tadbirkorlik muhitining shakllanish jarayonlarini tadqiq etganlar. A. Vahobov va Q. Abdurahmonovning ilmiy ishlarida mehnat bozori, bandlik va iqtisodiy o'sish jarayonlarida kichik biznesning o'rni va ahamiyati atroficha tahlil qilingan.

Modelning ishonchligini oshirish maqsadida multikolinearlik, geteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya va endogenlik kabi ekonometrik muammolarni nazorat qilishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Mazkur ilmiy ehtiyoj ushbu tadqiqotning dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ekonometrik modellashtirishning klassik va zamonaviy yondashuvlariga asoslanadi. Modelning nazariy poydevori regressiya tahlili, panel ma'lumotlar va vaqt qatorlari usullariga tayangan holda shakllantirilgan [9; 10; 11].

Jahon ekonometrika maktabida Gujarati, Wooldridge, Greene, Baltagi, Box va Jenkins tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy jarayonlarni regressiya tahlili, panel ma'lumotlar, vaqt qatorlari va prognozlash usullari asosida baholashning fundamental nazariy asoslarini yaratgan [9–13]. Ayyagari, Beck va Demircuc-Kunt tadqiqotlarida kichik va o'rta biznesning bandlikni ta'minlash hamda yalpi ichki mahsulotdagi ulushi xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qilingan [8]. OECD tadqiqotlarida esa kichik biznesning unumdorligi, innovatsion faolligi va moliyalashtirish imkoniyatlari tizimli ravishda o'rganilgan [7]. Jahon banki tadqiqotlarida kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi kredit infratuzilmasi, institutsional muhit sifati va bozor ochiqligi muhim omillar sifatida e'tirof etilgan.

MDH ilmiy maktabida L.V. Kantorovichning optimal rejalashtirish nazariyasi, A.G. Granbergning hududiy iqtisodiyotni modellashtirish bo'yicha ishlari hamda I.I. Yeliseyeva va V.S. Mxitaryanning statistik-ekonometrik tahlil yondashuvlari alohida metodologik ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotlarda iqtisodiy tizim ko'p omilli bog'liqliklar majmui sifatida talqin qilinib, hududiy tafovutlarni hisobga olish va prognozlash aniqligini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari A. O'lmasov, Sh. Shodmonov, N. To'xliyev, A. Vahobov, Q. Abdurahmonov hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti, mehnat bozori, moliya-kredit munosabatlari va iqtisodiy islohotlarning nazariy hamda amaliy jihatlarini keng yoritilgan. Ushbu ilmiy qarashlar va metodologik yondashuvlar milliy ekonometrik modelni shakllantirish hamda tadqiqotning ilmiy asoslarini mustahkamlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning empirik konsepsiyasi kichik biznes rivojlanishini ko'p omilli, hududiy hamda vaqt omillari ta'sirida shakllanuvchi dinamik iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilishga asoslanadi. Birinchi bosqichda tadqiqot



uchun keng qamrovli ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Mazkur bazaga hududlar kesimida kichik biznes subyektlari soni, yangi tashkil etilgan korxonalar, faoliyati yakunlangan korxonalar, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, eksport ko'rsatkichlari, kredit ajratmalari, investitsiyalar, aholi soni, infratuzilma rivojlanishi hamda raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi kabi muhim ko'rsatkichlar kiritiladi. Ma'lumotlarning yillik yoki choraklik kesimda shakllantirilishi modelning tahliliy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Ikkinchi bosqichda ko'rsatkichlar normalashtiriladi, narx omilining ta'sirini kamaytirish maqsadida real qiymatlarga o'tkaziladi hamda logarifmik shaklga keltiriladi. Log-log model koeffitsiyentlarni elastiklik ko'rsatkichlari sifatida talqin qilish imkonini beradi. Jumladan, kredit hajmi 1 foizga oshganda kichik biznes mahsulotlari hajmining necha foizga o'zgarishini aniqlash mumkin bo'ladi. Ushbu yondashuv kredit siyosati va investitsion qo'llab-quvvatlash dasturlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bosqichda model spetsifikatsiyasi tanlanadi. Ma'lumotlar hududlar va yillar kesimida mavjud bo'lgan hollarda panel regressiya modeli eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi [12]. Vaqt qatorlari asosida kichik biznes o'sishi, kreditlash, inflyatsiya va investitsiyalar o'rtasidagi uzoq muddatli bog'liqliklar ARDL yoki kointegratsiya yondashuvlari orqali baholanadi [13] (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha regressiya tahlili natijalari

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Statistik ahamiyat
CR	0.42	***
INV	0.31	**
DIG	0.27	***
R ²	0.78	—

Nazariy va empirik tahlillar kichik biznes rivojlanishida to'rtta asosiy determinantning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi: moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, institutsional muhit sifati, bozor infratuzilmasi hamda innovatsion-raqamli faollik. Kredit resurslari kichik korxonalar uchun aylanma mablag'larni to'ldirish, ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiya qilish, xomashyo xarid qilish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishning muhim manbai hisoblanadi. Kreditlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi korxonalarning rasmiy iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtiradi, bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshiradi hamda investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Investitsiyalar kichik biznesning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish texnologik modernizatsiya, malakali kadrlar tayyorlash va sifat standartlarini joriy etish bilan chambarchas bog'liq. Modelda investitsiya koeffitsiyentining ijobiy qiymati hududiy rivojlanish dasturlarida asbob-uskunalar lizingi, infratuzilmani rivojlantirish, sertifikatlashtirish va eksportga tayyorlash xizmatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. 2023–2025-yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda kreditlash, kooperatsiya, davlat xaridlarida ishtirok etish, tashqi bozorlarga chiqish hamda maslahat xizmatlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [2; 4; 5].

Raqamli omillarning ta'siri zamonaviy tadbirkorlik faoliyatida barqaror sur'atlarda ortib bormoqda. Elektron to'lovlar, onlayn savdo, raqamli marketing, bulutli buxgalteriya tizimlari, elektron hisob-fakturalar va davlat xizmatlaridan masofaviy foydalanish korxonalarning tranzaksiya xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Raqamli infratuzilmasi rivojlangan hududlarda yangi biznes tashabbuslarini amalga oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish va mahsulotlarni keng bozorga chiqarish imkoniyatlari yanada ortadi. Shu sababli modelga internet qamrovi, mobil banking operatsiyalari, elektron savdodagi ishtirok hamda raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini kiritish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini ekonometrik modellashtirish zamonaviy iqtisodiy boshqaruvning muhim ilmiy-amaliy vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv kichik biznes faoliyatini nafaqat umumiy statistik ko'rsatkichlar yoki korxonalar soni orqali, balki uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish asosida baholash imkonini yaratadi. Model yordamida kreditlar, investitsiyalar, mehnat resurslari, raqamli infratuzilma, soliq siyosati, institutsional muhit va bozor sig'imi kabi omillarning ta'siri kompleks ravishda aniqlanadi. Bunday yondashuv davlat siyosatini ilmiy asosda shakllantirish, hududiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.



O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni barqaror sur'atlarda mustahkamlanib bormoqda. Prezident farmonlari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari hamda 2030-yilgacha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar mazkur sektorning strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi. 2025-yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi va kichik biznesning YAIMdagi ulushi 52 foizdan yuqori darajaga yetgani ushbu sohaning mamlakat iqtisodiy barqarorligi va bandligini ta'minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. 2030-yilgacha ushbu ko'rsatkichni 60 foizga yetkazish maqsadi esa ilmiy asoslangan tahlillar, muntazam monitoring va samarali prognozlash modellaridan keng foydalanishni talab etadi [1; 2; 3].

Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan metodologik yondashuvlar kichik biznes rivojlanishini baholashda bir nechta ekonometrik usullarni uyg'un qo'llash muhimligini ko'rsatdi. Regressiya tahlili omillar ta'sirini aniqlash imkonini bersa, panel ma'lumotlar hududiy xususiyatlar va vaqt omilini hisobga olishga xizmat qiladi [10; 12]. Vaqt qatorlari va ARDL yondashuvlari esa uzoq muddatli iqtisodiy bog'liqliklarni baholash hamda rivojlanish tendensiyalarini prognozlash imkonini beradi. Elastiklik koeffitsiyentlari iqtisodiy siyosat choralari natijalarini sodda va tushunarli shaklda talqin qilishga yordam beradi. Modelning ishonchligini oshirish maqsadida multikolinearlik, geteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya va endogenlik kabi ekonometrik muammolarni nazorat qilishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq [13] (2-jadval).

2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirishda foydalaniladigan asosiy o'zgaruvchilar va ularning kutilayotgan ta'siri

Ko'rsatkich	Mazmuni	Kutilayotgan ta'sir
Y	Kichik biznesning ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi yoki qo'shilgan qiymati	Bog'liq o'zgaruvchi
CR	Tijorat banklari kreditlari va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi	Ijobiy
INV	Asosiy kapitalga investitsiyalar va texnologik yangilanishlar	Ijobiy
DIG	Raqamli infratuzilma, elektron savdo va elektron to'lovlar rivojlanishi	Ijobiy
TAX	Soliq siyosati va ma'muriy tartibga solish darajasi	Neytral yoki cheklovchi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). Kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF–50-son Farmon. <https://lex.uz/docs/-7444738>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlari to'g'risidagi PF–21-son hujjat. <https://lex.uz/docs/-6379809>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ–306-son Qaror. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6609110?ONDATE=01.01.2025>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ–312-son Qaror. <https://lex.uz/uz/docs/-7093832?ONDATE=29.09.2025%2000>
6. O'zbekiston Respublikasi. (2012). Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi Qonun.
7. OECD. (2023). OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing.
8. Ayyagari, M., Beck, T., & Demircuc-Kunt, A. (2007). Small and medium enterprises across the globe. *Small Business Economics*, 29(4), 415–434.
9. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). *Basic Econometrics* (5th ed.). New York: McGraw-Hill.
10. Wooldridge, J. M. (2016). *Introductory Econometrics: A Modern Approach* (6th ed.). Boston: Cengage Learning.
11. Greene, W. H. (2018). *Econometric Analysis* (8th ed.). New York: Pearson.
12. Baltagi, B. H. (2021). *Econometric Analysis of Panel Data* (6th ed.). Cham: Springer.
13. Box, G. E. P., Jenkins, G. M., Reinsel, G. C., & Ljung, G. M. (2015). *Time Series Analysis: Forecasting and Control* (5th ed.). Hoboken: Wiley.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>